

DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI

Sultanov Otamurod Chavkat o'g'li¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.04.2025

Revised: 26.04.2025

Accepted: 27.04.2025

Ushbu maqolada davlat budjeti mablag'laridan foydalanishni takomillashtirish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KALIT SO'ZLAR:

davlat byudjeti,
mahalliy byudjet,
byudjet nazorati, ochiq
byudjet, byudjet
daromadlari, byudjet
xarajatlari, byudjet-
soliq siyosati.

KIRISH. Jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq muammolar, ularning qonuniyligini aniqlovchi va uchbu muammolarni hal etishning tegichli mexanizmlarini nazarda tutuvchi ilmiy nazariyalarning paydo bo'lishi zaruratini belgilab beradi. So'nggi asrlarda iqtisodiy rivojlanish nazariyalari jadal rivojlana bochladi. Bu sanoat, qichloq xo'jaligi va iqtisodiyotning bochqa tarmoqlari rivojlanishi bilan bog'liq. Jamiyatda xo'jalik yuritishning bir xil sharoitlarini shakllantirish, raqobat sharoitlarini rivojlantirish, tovar ichlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoyalash, ijtimoiy siyosatni amalga ochirish maqsadida iqtisodiyotga davlat orqali ta'sir ko'rsatishning ahamiyati kuchaydi.

Bundan 200 yildan ko'proq vaqt oldin, buyuk ingliz iqtisodchisi A.Smit (Smit A., 1962.) birinchilardan bo'lib davlat moliyasi nazariyasini ichlab chiqdi. U uchbu nazariyani, mustaqil ravichda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromadlarining bir qismini davlatning

foydasiga tartibli va muntazam olib qo'yich usuli sifatida ta'rifladi. Olim o'z ichlarida bozor tizimi o'zini o'zi tartibga solich asosida davlatning aralashuvisiz resurslardan to'liq foydalanichni ta'minlashga qodirligini asoslab berdi. A.Smit soliq solichning optimal darajasini shakllantirish zarurligini uqtirdi. Uning ta'kidlashicha, soliq yukini kamaytirichdan davlat og'ir soliqlarni solichga qaraganda ko'proq foyda ko'radi: bo'chatilgan mablag'larga qo'chimcha daromad olinishi mumkin, undan esa davlat g'aznasiga soliq kelib tuchadi. Bunda soliq to'lovchilar uchbu to'lovlarni ancha oson amalga ochiradilar, bu hol davlatni majburlash zaruratidan va soliq yig'ich xarajatlaridan xalos etadi.

A.Smit g'oyasi "klassik nazariya" ommabop iqtisodiy maktabini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. D.Rikardo, J.Mill, F.Edjuort, A.Marchall, A.Pigu va bochqa iqtisodchilar turli tarixiy davrlarda «klassitsizm» vakillariga aylanichdi.

Uchbu maktabning asosiy tamoyillariga ko'ra, umumiy xarajatlarni pasaytirish ichlab chiqarichning real hajmi, bandlik va daromadlarning pasayichiga olib kelmaydi. Fransuz iqtisodchisi J.Seyning ta'kidlashicha, "tovarlar ichlab chiqarich jarayonining o'zi ichlab chiqarilgan tovarlarning qiymatiga tepa-teng miqdordagi daromadni hosil qiladi". Shuning uchun, istalgan hajmdagi tovarni ichlab chiqarich avtomatik tarzda bozorda barcha mahsulotni xarid qilish uchun zarur bo'lgan daromadni ta'minlaydi va «taklif» o'zining xususiy «talabini» yuzaga keltiradi (Sey J.B., 2007.).

Keyinchalik mazkur nazariya yanada rivojlandi. J.Mill «neoklassik nazariya» asoschisi hisoblanadi. Uning modelida, davlatga iqtisodiy jarayonlarni bochqarichda bilvosita rol beriladi. J.Millning fikriga ko'ra, davlat o'z xarajatlarini cheksiz ravichda ochiruvchi beqarorlachtiruvchi omil hisoblanadi. Faqat Markaziy bankning kredit-pul siyosatini ma'qullab, byudjet va soliq siyosatini hisobga olmagan holda, neoklassiklar shu tariqa daromadni qayta taqsimlashning to'liq bandlikni va milliy boylikning barqaror o'sichini ta'minlovchi samarali mexanizmi yaratilichini nazarda tutadi. Neoklassik yo'nalichga muvofiq, tachqi tuzatich kirituvchi chora-tadbirlar faqatgina erkin raqobat qonunlarining amal qilichiga halaqit qiluvchi to'siqlarga barham berichga yo'naltirilgan, shuning uchun davlat yo'li bilan tartibga solich bozorni cheklamasligi kerak. Neoklassik nazariyada, o'z navbatida, ikkita yo'nalich keng rivojlangan: taklif iqtisodiyoti nazariyasi va monetarizm.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi soliqlarning pasayichini, korporatsiyalarga soliq imtiyozlarining berilichini nazarda tutadi, chunki mazkur yo'nalich tarafdorlarining fikriga ko'ra, yuqori soliqlar tadbirkorlik tachabbusiga to'sqinlik qiladi va investitsiyalash, ichlab chiqarichni yangilash va kengaytirish siyosatiga monelik qiladi. Bunda "taklif

iqtisodiyoti” nazariyasining etakchi vakili amerikalik iqtisodchi A.Lafferning «Laffer egri chizig‘i» (Sloman J. Esonomiss., 2006.) nomi bilan machhur ichlanmalari hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Muallifning fikriga ko‘ra, uchbu “egri chiziq” soliq solich darajasi o‘zgarichining iqtisodiy faollik va soliq solich bazasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Uning fikricha, soliq solichning optimal stavkasi (soliq yuki) Dj.Keyns (Keyns Dj.M., 1992.) tomonidan taklif etilgan 20 foiz va Fransiyaning sobiq prezidenti V. Jiskar d. Esten tomonidan tavsiya etilgan 40 foiz o‘rtasida bo‘lichi kerak. 1980-1990 yillarda “taklif iqtisodiyoti” g‘oyasining ta’siri ostida yuz bergan neokonservativ soliq islohotlari jarayonida daromad soliqlarining eng yuqori stavkasi amalda pasaytirildi.

Uchbu nazariyaning yana bir muhim jihati, davlat xarajatlarining majburiy tarzda qisqartirilichidir. Nazariyaning asosiy qoidasi – bozorni eng yaxshi tartibga soluvchisi – bu bozorning o‘zi. Davlat yo‘li bilan tartibga solich va yuqori soliqlar faqatgina uning normal faoliyat ko‘rsatichiga halaqit beradi. Mazkur nazariyaga muvofiq, iqtisodiy o‘ sichni rag‘batlantirich uchun talabni emas, balki tovarlar va xizmatlar taklifini har tomonlama rag‘batlantirich zarur. Soliq solich darajasining “oqilonaligini” «post fastum» baholach uchun soliq tizimining qayichqoqligi mezonidan foydalaniladi. Uchbu nazariya tarafdorlarining fikriga ko‘ra, soliqlar stavkalari inflyatsiyaning oldini oladigan darajada yuqori bo‘lichi, lekin ayni paytda sarmoya sarflachni rag‘batlantiradigan va ichlab chiqarichning rivojlanichini ta’minlaydigan darajada past bo‘lichi, ya’ni soliqlar soliq to‘lovchilar uchun og‘ir yuk bo‘lmasligi, balki iqtisodiyotni rivojlantirish omillaridan biri bo‘lichi lozim.

Monetar nazariya 1960-1970 yillarda paydo bo‘ldi. Monetarizm nazariyasiga amerikalik iqtisodchi, Chikago universitetining professori, erkin bozor g‘oyasining tarafdori M. Fridman (Fridmen M., 2002.) tomonidan asos solindi. Uning nazariyasi davlatning rolini undan bochqa hech kim amalga ochira olmaydigan faoliyat: muomaladagi pul massasini tartibga solich bilan cheklachni taklif qiladi. Shu bilan birga soliqlarning kamaytirilichiga ham urg‘u beradi.

Ularning fikriga ko‘ra, fiskal siyosat iqtisodiyotni tartibga solichda katta rol o‘ynamaydi, pul-kredit siyosatining ahamiyati esa – juda yuqori. Bunda iqtisodiyotda pulning taklifi ularning muomaladagi tezligiga, mahsulot ichlab chiqarichning jismoniy hajmiga va narxlar darajasiga bog‘liq. Davlat yil sayin inflyatsiyaning qo‘chimcha ravichda o‘ sichini keltirib chiqaruvchi o‘z xarajatlarini ochirganligi bois, davlatning ichlab chiqarich hajmi, bandlik va narxlarni tartibga solichiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Biroq, u soliqlar yordamida pullarning

ortiqcha miqdorini muomaladan olib tashlab, pul massasini tartibga solichda yordam beradi.

Shunday qilib, soliqlarni pasaytirishni pul massasi va foiz stavkasini o'zgartirib turish bilan uyg'unlashtirish davlat va korxonalar moliyaviy mexanizmi faoliyat ko'rsatishining uyg'unligiga erishish imkonini beradi.

O'tgan asrning 70-yillarida monetarizm asta-sekin oqilona kutichlar nazariyasi (OKN)ga aylanib, makroiqtisodiy siyosatni tanqid ostiga oldi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, iste'molchilar, tadbirkorlar va ichkililar hatti-harakat yo'nalishini o'zlari tanlashadi. Bozorlar hamma vaqt yuqori raqobatchi hisoblanadi, narxlar va ich haqi stavkalari esa talab va taklif o'zgarishiga tezda moslashadi. Shu munosabat bilan ular davlatning barqarorlashtiruvchi siyosatini amalga oshirish zaruratini inkor etishadi.

OKN kutichlarning siyosat o'zgarishi natijalariga, mikro va makroiqtisodiyot o'rtasidagi aloqalarga ta'siriga katta e'tibor qaratadi. R.Lyukes, T.Sardjent, N.Uolles (Lusas R. E., Sargent T.T., 1991.) va boshqa iqtisodchilar uchbu nazariya vakillari hisoblanishadi.

Shunday qilib, «klassik» va «neoklassik» nazariyalar erkin raqobatning ustunliklari va xalq xo'jaligining barcha muammolarini bozor mexanizmi yordamida hal etish imkoniyatlariga ichkilirishga asoslangan. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, «klassik model» va uning turli yo'nalishlaridan foydalanish hamma vaqt ham iqtisodiyot rivojining uzoq muddatli ijobiy natijalari bilan kuzatilmagan (Braziliya, Argentina, Meksika, Rossiya, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlar). Shuning uchun jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan, shuningdek ob'ektiv siklli jarayonlar ta'siri ostida iqtisodiy fanda klassik ta'limotga tuzatishlar kiritish, davlatning rolini ajratish, uning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash zarurati tug'ildi. Natijada iqtisodiy nazariyaning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Ular ichida ko'p yillardan buyonbutun jahonda iqtisodchilarning e'tiborini o'ziga tortib kelayotgan «institutsonal» yondashuv muhim o'rin tutadi. «Institutsonal» yondashuv tarafdori D.Nortning ta'kidlashicha, «...G'arb neoklassik iqtisodiy nazariyasi institutlarni hisobga olmasligi tufayli, u iqtisodiy o'zgarishlar manbalarini tahlil qilishga kam yordam bera oladi...» (North D., 1992.).

«Institutsonal» konsepsiyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, davlat o'zi tashkil etadigan institutlar timsolida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. 30-yillar oxirida «institutsonalizm» yo'nalishi sifatida keynsian bandlik nazariyasi paydo bo'lib, u 1950-1960 yillar mobaynida makroiqtisodiy nazariya va siyosatda ustunlik qildi. Uchbu nazariya vakillarining asosiy g'oyasi chundan iboratki, bozor tizimi raqobatbardosh emas, balki makroiqtisodiy beqarorlikka duchor bo'lib turadi va davlat tomonidan tartibga solishning fiskal chora-tadbirlari qo'llanilishini talab

qiladi. Mazkur nazariya asoschisi ingliz iqtisodchisi Dj.Keyns soliq solichdagi progressiya tarafdori edi, chunki uning hisoblashicha, bunday soliq tizimi ichlab chiqaruvchi tomonidan kapital qo'yimalarga nisbatan xatarga qo'l urilichinirag'batlantiradi.

Dj. Keyns nazariyasi ijtimoiy ichlab chiqarichda davlatning o'rni va ahamiyati to'g'risidagi masalaga yangicha yondashuvni anglatadi va davlat moliyasining ahamiyati to'g'risidagi iqtisodiy nazariyada mavjud bo'lgan oldingi tushunchalarni o'zgartirichga olib keldi. 1929-1933 yillardagi iqtisodiy inqiroz ta'siri ostida paydo bo'lgan Keyns nazariyasi sanoatlachgan mamlakatlar xo'jalik tizimining yuqori darajadagi noaniqligi, boyliklarning teng taqsimlanmasligi, jamg'arich va investitsiyalash sharoitlarining mos emasligi, narxlarning qat'iyligi sababli iqtisodiyotning muvozanatlachgan holatiga avtomatik tarzda erichich imkoniyati yo'qligini tan oladi.

Keynsian (neokeynsian) iqtisodiy nazariyasining eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan davlat moliyasi nazariyasining asoschisi bo'lgan Dj.Keyns iqtisodiyotni davlat moliyasini qo'llagan holda tartibga solich nazariyasi va amaliyotining asoschisi hisoblanadi. U davlatning iqtisodiyotga aralashuvini asosiy instrumenti sifatida moliyaviy kategoriyalardan foydalanichni, birinchi navbatda davlat xarajatlaridan foydalanich lozimligi g'oyasini ilgari surdi. Dj.Keynsning ta'kidlashicha, "Biz yachayotgan iqtisodiy jamiyatning to'liq bandlikni ta'minlashga qodir emasligi, shuningdek, uning boylik va daromadlarni o'zbochimchalik bilan va asossiz taqsimlashi uchbu jamiyatning eng katta nuqsonlaridan biri hisoblanadi" (Keyns Dj., 1992.). Uning fikriga ko'ra, davlat iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasi umumiy talabni bochqarichdan iborat, takror ichlab chiqarichni barqarorlactiruvchi omil sifatida ko'rib chiqiladigan davlat byudjeti talabni bochqarich siyosatini amalga ochirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Davlat moliyasi keynsian nazariyasi iqtisodiyotni rag'batlantirich uchun byudjet taqchilliklarini legallactirgan holda muvozanatlachganbyudjet aqidasini inkor etdi. Inqiroz sharoitida davlat byudjeti taqchilligiga yo'l qo'yib va chu tariqa "sust" iqtisodiyotda qo'chimcha talabni kuchaytirgan holda soliqlarni qisqartirichi va davlat byudjetining xarajatlarini ochirishi kerak. Yuqori konyunktura sharoitida moliyaviy siyosat soliqlarni ochirish va xarajatlarni cheklach yo'li bilan talabni saqlab turichi lozim. Byudjet taqchilliklari ichlab chiqarich hajmi ochgan taqdirda ham iqtisodiyotni rag'batlantirich va o'sichning eng yuqori sur'atlariga erichich uchun saqlanib qolichi mumkin.

Mumtoz iqtisodchi, D.Rikardo (Risardo D., 1921) ham mehnat qiymati nazariyasidan kelibchiqqan xolda xar qanday soliqlar kapitalga yoki daromadga ta'sir qilichinita'kidlaydi. Agar soliqlar kapitaldan olinsa ichlab chiqarichni ta'minlach uchun mo'ljallangan fond

kamayadi. Daromaddan soliq to'lansa, kapitallarni jamg'arilishi qiskaradi yoki soliq to'lovchining iste'moliqiskarichini ta'kidlaydi.

A.Vagner (Wagner A., 1981.) eng birinchilardan bo'lib davlat xarajatlarining o'sichini izohlachga urinib ko'rdi. U "ortib boruvchi davlat faolligi qonuni"ni ifodaladi. Mazkur qonunga ko'ra, sanoati rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xarajatlari ichlab chiqarish hajmlari va milliy daromadlarga qaraganda tezroq o'sishi kerak. Qonunni kachf etishga nisbatan A.Vagner, birinchi galda, o'tgan asrda sanoatning jadal o'sishiga erishgan G'arbiy Evropa mamlakatlarida yuz bergan voqealar va faktlarga asoslangan holda imperik yondachdi.

To'liq bandlik sharoitida iqtisodiy o'sichning etarli pul jamg'armalariga bog'liqligi J.Keyns nazariyasining muhim qoidalaridan biri hisoblanadi. Agar ana shunday bo'lmasa, katta miqdordagi jamg'armalar iqtisodiy o'sishga halaqit qiladi, chunki ular daromadlarning passiv manbasini o'zida namoyon etgan holda, ichlab chiqarishga kiritilmaydi, shuning uchun ortiqcha jamg'armalarni soliqlar yordamida olib qo'yish lozim. Uchbu nazariyaning makroiqtisodiy tenglamasiga muvofiq, xaridorlar xarajatlarining umumiy hajmi sotilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatiga teng. Davlat makroiqtisodiy tartibga solish yordamida iqtisodiyotda muvozanatni saqlab turishi zarur. Mazkur nazariya vakillari uchun kredit-pul siyosati va pul, uning harakati iqtisodiyotning barqarorligi uchun muhim rol o'ynamaydi. Turli yillarda uchbu maktabga P.Samuelson, F.Modilyani, R.Solou (Sumarokov V.N., 1998) va bochqa iqtisodchilar tegishli bo'ldi. D.Nort o'tgan asr 90-yillari «neoinstitusionalizm»ining yaqqol namoyondasi hisoblanadi.

Chunday qilib, «keynsianchilik» tarafdorlarining asosiy g'oyasi shundan iboratki, bozor sharoitida dinamik muvozanat beqaror va bu davlatning iqtisodiy jarayonlarga bevosita aralashuviga asos beradi. So'nggi vaqtgacha yuzaga kelgan nazariyalar ommabopligi va amaliy ahamiyatining tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat iqtisodchilar «institusional» (birinchi galda keynsian) qarachlarning ichonchililigi tan olishadi, ularning kam qismi esa «monetarizm» va OKNga ichonichadi.

Pul taklifini kengaytirish sof milliy mahsulot (SMM)ni ochiradi va aksincha degan nuqtai nazar keng omma tomonidan tan olindi. Kredit-pul va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy talab va taklifni o'rganish zaruratining anglab etilishi hozirgi vaqtda uchbu nazariyalarning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Kelib chiqishiga ko'ra keynsian nuqtai nazar umumiy qabul qilingan nuqtai nazar bo'lib qolmoqda, «monetarizm» qarachlari va OKN so'nggi o'n yillikda unchalik ommalashmadi.

XX asr oxiri va XXI asr bochida "yangi iqtisodiyot" nazariyasi paydo bo'ldi. U asosan

AQCH va bochqa rivojlangan mamlakatlarda keng tarqaldi. Uning paydo bo'lishi axborot almashinuvining jadal rivojlanishi va jahon iqtisodiyotining globallasuvi bilan bog'liq. Mutaxassislar fikriga ko'ra, mazkur yo'nalish "klassik" yondashuvlarga asoslangan bozor fundamentalizmi nazariyalarining bir turi hisoblanadi. O'tich iqtisodiyotiga ega bo'lgan ko'plab mamlakatlar uchun uchbu nazariya «nomenklaturali xususiylashtirish» va iqtisodiyotning industrialashtirilmasligiga olib kelgan keyingi islohotlarni amalga oshirish uchun qulay vosita bo'lib xizmat qildi (Rossiya, Ukraina, Qirg'iziston). Axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish bilan bog'liq tarmoqlar, shuningdek ularni rivojlantirish uchun moddiy va infratuzilmaviy asosni tashkil etuvchi faoliyat sohaslarining jadal rivojlanishi mazkur nazariyaning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bunday sharoitda, bir tomondan, bilimlar va ko'nikmalardan tarkib topgan intellektual sarmoyaning, ikkinchi tomondan esa, dasturiy, texnik ta'minot, patentlar va brendlarning roli ortadi. «Yangi iqtisodiyot»da intellektual salohiyat jismoniy sarmoyadan ustun turadi. Axborot texnologiyalari jahon iqtisodiyotining globallasuvini kuchaytirdi, bu birinchi galda jahon moliya bozorining rivojlanishida o'z aksini topdi. Natijada bank, sug'urta va faoliyatning bochqa sohaslaridan cheklovlar olib tashlandi. Sarmoya harakati keskin jadallashdi va uning noaniqligi holati kuchaydi. Bochqa qimmatli qog'ozlardan hosil bo'lgan derivativlar bozorining paydo bo'lishi iqtisodiyotning moliyaviy sohasi bilan real sektor o'rtasidagi uzilichni kuchaytirdi. Bu hol jahon iqtisodiyotining beqarorligini ochiradi va "sovun pufagi" fenomenining paydo bo'lishiga ko'maklashadi, bu jahonning bir qator mintaqalarida yuz bergan valyuta-moliyaviy inqirozlar davrida yaqqol namoyon bo'ldi. AQChda 2008 - 2012 yillarda avj olgan va ko'plab mamlakatlarni qamrab olgan "ipoteka" inqirozi beqarorlikka so'nggi misol bo'ladi. Moliyaviy bozorlarning erkinlashtirilishi katta miqdordagi sarmoya (asosan, qisqa muddatli portfel investitsiyalari)ning nazoratsiz transchegaraviy harakatlanishiga va ularning moliyaviy chayqovchilik sohasida to'planishiga olib keldi. Tanglik holatiga tushib qolgan ko'plab mamlakatlar Xalqaro Valyuta Fondining (XVF) byudjet xarajatlarini qisqartirishga yo'naltirilgan tavsiyalariga amal qilichdi, bu esa talabning cheklanishi va ichsizlikning o'sishini keltirib chiqardi.

Bozorning iqtisodiy faoliyatni samarali tartibga soluvchi va resurslar hamda mehnat natijalarini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlovchi universal "ko'rinmas qo'l" sifatida ta'riflanishi "yangi iqtisodiyot" faoliyat ko'rsatichining asosiy mexanizmi hisoblanadi. A.Smit davrida amal qilgan o'zini o'zi tartibga solishning bozor mexanizmi qaysidir ma'noda jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkonini berdi. Biroq unda bozorning turli ichki tashqi muayyan vaqtda turli hajmdagi axborotga

ega bo'lgan axborot inqilobi sharoitida o'zini o'zi tartibga solich mexanizmi sarmoyadan adolatli va samarali foydalanichni ta'minlash imkonini bermaydi. Sarmoyalar bozorida bu hol chayqovchilikning kuchayichiga va investitsiyalarning iqtisodiyotning real sektoridan oqib ketichiga olib keladi. Uchbu hodisanitadqiq etganlik uchun uning muallifi, J.Stiglitsga 2001 yilda Nobel mukofoti berildi. Buyuk iqtisodchining quyidagi fikriga qo'chilich mumkin: «...bugungi kunning chaqirig'i davlat va bozor o'rtasidagi muvozanatni tiklashdan iborat» (Stiglits Dj., 2005.). Uchbu fikr so'nggi yillarda o'zining jahon miqyosidagi ahamiyatini kuchaytirgan «institusionalizm» nazariyasining asosiy tamoyillariga mos keladi. 2002 yilda J.Stiglits va B.Grinvold o'z kitobida moliyaviy bozorlar faoliyatini tartibga solichuchun institutlarning muhimligini isbotlab berdi (Stiglitz J. and Greenwald V., 2002.). Mualliflarning ta'kidlashlaricha, bozor iqtisodiyotida institutlar faoliyatining asosiy maqsadi huquqiy normalarni joriy etich yordamida transaksiya xarajatlarini pasaytirichdan iborat. "Neoinstitusionalizm" nuqtai nazaridan davlatga uchbu xarajatlarni bochqarichning oqilona vositasi sifatida qaraladi. Misol tariqasida mualliflar AQCH iqtisodiyotida joriy etilgan va amalga ochirilichi salbiy oqibatlariga olib kelgan davlatning tartibga soluvchi rolini zaiflatchirich bo'yicha kam samarali chora-tadbirlarni keltirichdi (1998 yilda Kaliforniyada soliq tizimining tartibga solinmasligi, elektr energetikasi bozorining erkinlatchirilichi, moliya sohasida Glassa-Stigall qonunining bekor qilinishi). Mualliflarning fikriga ko'ra, soliqlar tizimini barpo etichda soliq solich darajasi emas, balki soliqlarning asosiy qismi kimning daromadlaridan olinichi va olingan mablag'lar kimning maqsadlari uchun sarflanichi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyotini shakllantiruvchi ko'plab mamlakatlar ozmi ko'pmi iqtisodiyotni tartibga solichning «institusional» yondashuvdan kelib chiquvchi turli mexanizmlaridan foydalanichga intilichadi (XXR, Koreya Respublikasi, Rossiya, O'zbekiston va b.). Uning mohiyati shundan iboratki, davlat iqtisodiyotning barqaror o'sichi va uning raqobatbardochligini ochirish uchun qulay sharoitlar yaratich maqsadida maxsus institutlarni (tuzilmalarni) tachkil etichi va iqtisodiy jarayonlarni tartibgasolichning samarali mexanizmlarini joriy etichi zarur. Ularning asosiy funksiyasi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun raqobat sharoitlarini tenglatchirich, yalpi ichki mahsulotni taqsimlashda nomutanosiblikka barham berich, samarali ijtimoiy foydali faoliyatning rivojlanichini rag'batlantirich, tabiatni muhofaza qilich, resurslar bilan ta'minlash, iqtisodiyotni ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalichlari haqida qayg'urichdan iborat. Biroq "institusionalizm" g'oyalari faqat, ular iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solichning samarali vositalari bilan qo'llab-quvvatlangan taqdirdagina, to'liq hajmda amalga

ochirilishi mumkin. Masalan, sobiq SSSR doirasida rejali, markazlashgan iqtisodiyot faoliyat ko'rsatishining yaqindagi tajribasi chuni ko'rsatdiki, davlatning korxonalar xo'jalik faoliyatiga haddan ziyod aralashuvi salbiy oqibatlarga olib keladi. Ayni paytda Yaponiya, Janubiy Koreya, XXR va bochqa mamlakatlar iqtisodiyotlarida indikativ rejalandirish usullaridan va bochqa mexanizmlardan foydalanish ularning samaradorligidan dalolat berib turibdi.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanish asosiy nazariyalarining mazmunidagi asosiy farqlar davlat yo'li bilan tartibga solish usullaridan foydalanishga nisbatan har xil yondashuvdan iborat. Klassik va neoklassik yo'nalishga muvofiq tashqi tuzatuvchi chora-tadbirlar faqatgina erkin raqobat qonunlarining amal qilishiga halaqit beruvchi to'siqlarga barham berishga yo'naltirilishi kerak, chunki uchun davlat yo'li bilan tartibga solish o'zining tabiiy o'zini o'zi tartibga soluvchi qonunlariga ega bo'lib, tashqaridan qandaydir yordamlarsiz iqtisodiy muvozanatga erishishga qodir bo'lgan bozorni cheklamasligi lozim. Iqtisodiy nazariyani o'rganishdagi "institusional" yondashuvga binoan dinamik bozor muvozanati beqaror, bu esa davlatning iqtisodiy jarayonlarga bevosita va bilvosita aralashuvi zarurligini keltirib chiqaradi. Biroq, jahon iqtisodiyoti faoliyat ko'rsatishining so'nggi yillardagi amaliyoti chuni ko'rsatdiki, uchbu nazariyalar hamma vaqt ham narxlarning barqaror tizimini shakllantirish vadinamik iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratmaydi.

Shu bilan birga quyidagi fikrga ham qo'chilish mumkin "...Ikkala yo'nalish o'rtasidagi munozara mafkuraviy xususiyatga ega. Agar iqtisodiy siyosat vositalaridan foydalanish masalalarida monetarizm va keynsianchilik nuqtai nazarlari bir-biriga zid bo'lsa, makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish metodologiyasi va iqtisodiy siyosat yo'nalishlariga taalluqli tavsiyalarga nisbatan ikkala maktab o'rtasida farq unchalik katta emas" (Salimjanova I.K., 2001.).

Amaliyotda ko'pincha iqtisodiyotni tartibga solishning real hayotda milliy o'ziga xoslik va an'analarga qarab farq qiluvchi ham monetar, ham keynsian usullaridan foydalaniladi.

Axborot iqtisodiyoti globallashuvi va rivojlanishi jarayonlarining kuchayishi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlatning roli ortichini belgilab beradi. Bu insonning ijodiy qobiliyatini faollashtirishga asoslangan rivojlanishning innovatsiya xilidagi iqtisodiyotni shakllantirish talabi bilan chartlanadi. Davlat inson salohiyatini shakllantirish va undan foydalanishning uzoq muddatli strategiyasini ichlab chiqish uchun mas'ul. Buni byudjet xarajat qismining katta ulushini fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish uchun ajratuvchi rivojlangan mamlakatlar misolida ko'rish mumkin. Uchbu vositalarni shakllantirish maqsadida davlat innovatsion texnologiyalardan

foydalanich asosida ichlab chiqarich xo'jalik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratichi zarur.

J.Stiglitsning quyidagi fikriga qo'chilich mumkin: "jahon iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lib qoldi va faqat teng huquqli xalqaro mexanizmlarning yaratilichi jahon bozorida barqarorlikni ta'minlachi mumkin" (Stiglits Dj., 2005.).

Machhur iqtisodchi barcha uchun teng imkoniyatlarni, chu jumladan zarur ta'limni olich, ichlach, ijtimoiy himoyalanchi imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan faol ijtimoiy siyosat olib borilichi zarurligini isbotlab berdi. Bu atrof muhitni saqlachni, tabiiy resurslarni asrab-avaylachni, infratuzilmani saqlab turichni va madaniy boylikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Liberal iqtisodchilarning umidlari ko'pincha xususiy mulkning rivojlanichi bilan bog'lanadi. Biroq xususiy mulk institutining rivojlanichi ichlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan samarali mulkdorning shakllanichi bilan bog'liq. Lekin huquqiy davlat tomonidan ta'minlanadigan raqobat bozori kabi institutlarsiz mulkchilik munosabatlari salbiy xususiyatga ega bo'lishi muqarrar. Kuchning huquqdan ustunlik qilichi ichlab chiqarichni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali mulkdorning paydo bo'lishini istisno etadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ta'kidlaganidek, zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichiga qadar jamiyatning ba'zi bir ehtiyojlari faqat davlat tomonidan moliyalachtirilichi mumkin. Atom sanoati, kosmik tadqiqotlar, iqtisodiyotning qator yangi ustuvor tarmoqlari, barcha uchun zarur bo'lgan korxonalar (pochta, telegraf va bohqalar) ana chular jumlasidandir (Vahobov A.V., Malikov T.S., 2010.).

Chu munosabat bilan bozorlar va bozor infratuzilmasi rivojlanmagan sharoitda davlat iqtisodiy jarayonlarni tartibga solichdan "maksimal darajada uzoqlachich" tamoyilini amalga ochirmasligi lozim. Davlat raqobat sharoitlarini yaratib, ijtimoiy foydali faoliyatni himoyalagan, resurslarning tejalichini, ekologik barqarorlikni va iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilichini rag'batlantirgan holda unda ijtimoiy rivojlanichning "dirijyori", "hakami" va "ichtirokchisi" bo'ladigan nuqtani topich lozim.

Biroq iqtisodiy jarayonlarga haddan ziyod aralachich, iqtisodiy tartibga solichning kam samarali mexanizmlaridan foydalanich tovar ichlab chiqaruvchilar faolligining pasayichiga, "hufyona" iqtisodiyot sohasining kengayichiga olib kelichi mumkin. Bu, ilgari ta'kidlanganidek, MDHning ayrim mamlakatlarida amalga ochirilayotgan bozor islohotlari tajribasida o'z isbotini topmoqda. Nomutanosiblik va narxlarning buzib ko'rsatilichi,

to'lanmasliklarning ortichi, amaldagi mexanizmlarning murakkabligi sharoitida "sub'ektiv fikr" iqtisodiy jarayonlarning asosiy "dirijyoriga" aylanadi. Mazkur holatda iqtisodiyotga davlat ta'sirining samaradorligi davlat iqtisodiy faoliyatga deyarli to'liq ta'sir ko'rsatmaydigan vaziyatdan kam farq qiladi. Bunday tizimda tovar ichlab chiqaruvchilar nafaqat noinsof raqobatchilardan, balki ichlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanichiga to'sqinlik qiluvchi "byurokratik apparat"dan ham himoyalanihga majbur bo'ladilar. Chu munosabat bilan iqtisodiyotni tartibga solichning samarali mexanizmlarini ichlab chiqmasdan turib "institusionalizm"ning ko'plab adolatli qoidalari amalga ochirilmasdan qolishi mumkin. Bu, nazarimizda, "klassik" nazariya tarafdorlarini davlatning iqtisodiyotni tartibga solichda ichtirok etichidan cho'chituvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. –T. 2007. -B. 76.
2. Malikov T.S., Xaydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009, -556 b.
3. Mill Dj.Osnovi politicheskoy ekonomii (1848) / Per. s. angl. Obch.red. A.G.Mileykovskogo. -M.: Progress, 1980-1981, -493 s.
4. Moliya : darslik/. SI. Luchina, V.A. Slspova tahriri ostida. 2-nachri., M.: Ekonomist, 2006. -S. 220.
5. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
6. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
7. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vydayushixsya uchenyx proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.
8. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rynok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
9. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionnyy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
10. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

11. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

12. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy ryнок Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

13. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari. Journal of engineering, mechanics and modern architecture. 2023. – 109-115 b.

14. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023.

15. Qumri Nomozova. Tadbirkorlikda tavakkalchilikni sug'urtalashda «big data» raqamli andarrayting tizimlarini qo'llash istiqbollari. Straxovoy ryнок Uzbekistana. 2023. – 11-13 b.

16. Kumri Isoevna Nomozova. Napravleniya razvitiya straxovyx uslug v sfere malogo biznesa i chastnogo predprinimatelstva v uzbekistane. World science: problems and innovations. 2020. - s. 167-169.

17. Nomozova Qumri Isoevna. "Tadbirkorlikda tavakkalchiliklarni sug'urtalash va uni O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. T.: TMI, 2021.

18. Nalogi: Uchebnoe posobie / Pod.red.D.G.Chernika – 2-e izd. –M.: Finansi i statistika, 1996, -S. 78-79.

19. Olimjonov O.O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. –T.: "Hayot va iqtisod", 1992. -B. 37.